



Abdurashitova Obidaxon Xurshidbek qizi

*Andijon viloyati Buloqboshi tumani 5-umumiy o'rta ta'lim maktabi 8-"B" sinf
o'quvchisi*

Qalbi tanhoyim onam

Dunyodagi gullar ham iforin bosmas,
Chiroyda quyosh ham uyalib boqmas.
Zaminda yagonam, go'zalim oyim,
Bu mening onamdir, qalbi tanhoyim.
Farishtamdir mening, Alloh berganim,
Mehrligim mening, jannat deganim.
Yurakda yagonam, jonim berganim,
Bu mening onamdir, qalbi tanhoyim.
Qalbimda shamchiroq yoritgan nurim,
Yaxshiyu yomonni o'rgatgan durim.
Qodir Allohimni tanitgan hurim,
Bu mening onamdir, qalbi tanhoyim.

Matematika fani

Matematika faniga qiziqmayman to'g'risi,
Ba'zida-chi o'ylayman, o'ylab topgan kim o'zi?
Foizlari bir qiyin, yuragingga sig'maydi,
Kosinus, sinusiga miyang ham dosh bermaydi.
Tangenslar, kotangenslar, kasrlari bor ekan,
Bu narsalar oldida Obidaxon xor ekan.
Foizlar, koeffitsientlar, kimga kerak shuncha ish?
Bu fanga-chi qiziqsang, boshingdan chiqmas tashvish.
Eng katta koeffitsientni topguncha men o'laman,
Undan ko'ra she'r yozib, buyuk shoira bo'laman.

Turonimning siymosisan, boqiy yurtim

O'zbekiston jondan aziz, go'zal yurtim,
Mag'rurona tog'laring bor, g'azal yurtim.
Sen tarixim, kelajagim, ozod yurtim,
Turonimning siymosisan, boqiy yurtim.
Sen o'zligim, ozodligim, jonimdirsan,
Onajonim siymosisan, orimdirsan.
Yuragimda urib turgan shonimdirsan,
Turonimning siymosisan, boqiy yurtim.



Tuproq'ingda ajdodlarning qoni bordir,
Arslonlaring Manguberdi zori bordir.
Temurlaring, Boburiylar ori bordir,
Turonimning siymosisan, boqiy yurtim.
Senda yashab o'tgan buyuk siymolarim,
Navoiydek aziz, mashhur bobolarim.
Qaddimni tik tutdim bugun, yoronlarim,
O'zligimsan, borimdirsan, g'azal yurtim,
Turonimning siymosisan, boqiy yurtim.

O'zbek qiziman

(Osmonlarga ko'tarib boshim,
Yeyapman har lahza oshim.
Gapirmanglar, otaman toshim,
Sababi men o'zbek qiziman.
Ajdodlarim qoni yurakda,
To'marisim shoni yurakda.
Temuriylar ori yurakda,
Sababi men o'zbek qiziman.
Oltin teng go'zal yurtim bor,
Jannatmakon bu go'zal diyor.
Qadrlayman uni har zamon,
Sababi men o'zbek qiziman.
O'zbekimdir borimdan aziz,
Oqib turgan qonimdan aziz.
Yuragimdir jonimdan aziz,
Sababi men o'zbek qiziman.
Kindik qonim to'kilgan tuproq,
Jondan aziz ko'rgayman har chog'.
Avaylayman, lek bilmam charchog',
Sababi men o'zbek qiziman.